



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies

SHARQSHUNOSLIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

## XX ASR 70–80-YILLAR XITOY ADABIY JARA YONLARIDA DRAMATURGIYA

*Shaxnoza Komilova*

*O'qituvchi,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*Email: [shahnoz7779@gmail.com](mailto:shahnoz7779@gmail.com)*

### MAQOLA HA QIDA

#### Kalit so'zlar:

"uyg'onishi", dramada realistik an'analar, "to'rtlik guruhi", "ijtimoiy muammolar pyesasi", "dramada impressionistik qarashlar", "impressionizm" va "realizm", "fantastik dramalar".

**Annotatsiya:** Xitoy dramaturgiyasining yuzaga kelish jarayoni, shakllanish omillari, janr taraqqiyoti va uning rivojiga hissa qo'shgan dramaturlar ijodini ilmiy aspekda o'rGANilib kelinmoqda. XX asr boshlariga kelib g'oyaviy yo'naliш, mazmun-mundarija, shaklda yangilanishlar, o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrga kelib jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlar tufayli milliy san'atda murakkab jarayonlar yuzaga keldi. An'anaviy teatrda yuzaga kelgan inqirozli holat xorijiy madaniyatni faol o'rganish va shu asnoda dramaturgiya va teatrning yangi ko'rinishi rivojiga turtki bo'ldi. Bu san'at Xitoya G'arbdan inqilobiy-demokratik g'oyalar bilan birga kirib keldi. Mazkur maqolada XX asr 70–80-yillarda xitoy adabiyotida dramaturgiyaning takomillashuvi, uning taraqqiyotiga hissa qo'shgan bir qator dramaturlar ijodi hamda tarjima adabiyotining ta'sir masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan.

## DRAMATURGY IN CHINESE LITERARY PROCESSES OF THE 1970s-1980s

*Shakhnoza Komilova*

*Lecturer,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** "awakening", realistic traditions in drama, "group of four", "plays of social

**Abstract:** The process of the emergence of Chinese drama, the factors of its formation, the development of the genre and the work of playwrights who contributed to its development are studied in a scientific aspect. By the

problems", "impressionistic views in drama", "Impressionism" and "realism", "fantastic dramas"

beginning of the XX century, there were updates, changes in ideological orientation, content, and form. Due to the economic, social and spiritual changes taking place in society by this time, complex processes were taking place in the national art. The crisis situation that has developed in the traditional theater has served as an impetus to the active study of foreign culture and, accordingly, to the development of a new look of drama and theater. This art came to China from the West along with revolutionary democratic ideas. This article is devoted to the study of the improvement of dramaturgy in Chinese literature in the 70- 80s of the XX century, the work of a number of playwrights who contributed to its development, as well as the influence of translated literature.

## ДРАМАТУРГИЯ В КИТАЙСКИХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОЦЕССАХ 1970-1980-ГГ.

**Шахноза Комилова**

Преподаватель,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:**  
 "пробуждение",  
 реалистические традиции в драме, "группа четырех",  
 "пьесы социальных проблем",  
 "импрессионистические взгляды в драме",  
 "Импрессионизм" и "реализм", "фантастические драмы"

**Аннотация:** Процесс возникновения китайской драмы, факторы ее формирования, развитие жанра и творчество драматургов, которые способствовали ее развитию, изучаются в научном аспекте. К началу XX века произошли обновления, изменения идейной направленности, содержания, формы. В связи с экономическими, социальными и духовными изменениями, происходящими в обществе к этому времени, в национальном искусстве происходили сложные процессы. Кризисная ситуация, сложившаяся в традиционном театре, послужила толчком к активному изучению зарубежной культуры и, соответственно, к развитию нового облика драматургии и театра. Это искусство пришло в Китай с Запада вместе с революционно-демократическими идеями. Данная статья посвящена изучению совершенствования драматургии в китайской литературе в 70-80-е годы XX века, творчеству ряда драматургов, внесших свой вклад в ее развитие, а также вопросам влияния переводной литературы.

### KIRISH

XX asrning 80-yillaridan boshlab, xitoy adabiyoti olamida ommaviy "Ildizlarga qaytish" harakati boshlandi, bu xitoy adabiyotini o'z aqidalariga, an'analariga qaytishni ko'zlagan harakat bo'ldi. Chunki, "madaniy inqilobdan" so'ng, mamlakat adabiy olamini faqat siyosiy asarlar, kommunistik targ'ibotlarni o'zida mujassam etgan kitoblar, bundan tashqari, Yevropa adabiyotida keng yoyilgan modernizm va postmodernizm janrlari egallab kelayotgan edi. "Ildiz-

larga qaytish” harakati xitoy adabiyoti olamini siyosatdan sug‘urib haqiqiy adabiyot, ijodkorlik sari burdi. Ayniqsa, bu davrda shaxs, uning tuyg‘ulari, ruhiy olami kabi dolzarb mavzular keng muhokama qilina boshlandi. Shu sababli xitoy adabiyotida dramaturgiyaning rivoji xususida so‘z yuritishdan avval, adabiyotning rivojlanish xususida davrlarga bo‘lib ma’lumotlar keltirib o‘tamiz.

*Birinchi bosqich.* Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilgach, adabiyot olamiga ozod etilgan hududlar va butun Xitoydan, gomindanchilardan iborat ijodkorlar kirib keldi, bu o‘z-o‘zidan, adabiyotda ikki kompozitsion oqimni vujudga keltirdi: Birinchi oqim ijodkorlari asarlarida, xalq madaniyatining demokratik janrlari va folklori ta’sirida xalq qo‘shiqlari, ertaklari, milliy sarguzasht romanlarining ta’siri sezilib turadi. Bunga Chjao Shu-Li, Chjao Li Bo, Din Lin asarlari misol bo‘la oladi. Ikkichi oqim G‘arb adabiyoti ta’sirida ijod qilgan adiblar asarları. Bu oqim yozuvchilari G‘arb adabiyotini juda yaxshi bilgan va undan ta’sirlangan. Bu ta’sir natijasida G‘arb adabiyoti namunalarining xitoy tiliga tarjima qilinishiga sabab bo‘ldi<sup>1</sup>.

*Ikkinchi bosqich.* 1950-yillarga kelib xitoy adabiyotida urush mavzusi dolzarb mavzuga aylandi. Bu davrda kitobxonlarni urushning barcha dahshatini ochib bera olgan, bundan tashqari, inqilobiy g‘oyalarni ilgari surgan romanlar yaratila boshlandi.

*Uchinchi bosqich.* 1957-yildan boshlab xitoy adabiyotida zamonaviy she’riyatga bag‘ishlangan, rus adabiyoti namunalarini keng targ‘ib qilgan jurnallar o‘z faoliyatini boshlaydi. Aynan mana shu davrda rus yozuvchilari, ijodkorlari asarları keng ko‘lamda tarjima qilinib, e’lon qilib borilgan. Bu davrda asosan she’riy tarjimalar ko‘p salmoqqa ega bo‘lgan, deyish mumkin. 1966-yilda adabiyot olamini turg‘unlikka olib kelgan madaniy inqilob boshlandi. Ko‘pgina zamonaviy adabiyot namunalari bo‘lgan asarlar keskin tanqidga uchradi. 1967–1969-yillardagi madaniy inqilobdan so‘ng na bir adabiy asar, na bir yozuvchining asarları va na bir keng o‘quvchi auditoriyasiga moslangan jurnallar chiqarilmadi.

*To‘rtinchi bosqich.* Faqatgina 1971-yilga kelib mashxur adiblarning asarları chop etila boshlandi, 1972-yilga kelib 130 dan ortiq turli janrdagi asarlar chop etildi yoki qayta nashr qilindi. Misol tariqasida Ju Kefeyning “Bahorgi oqim” (“春潮色”), Li Yun Dongning “Qaynoq tog‘lar” kabi romanları, Guo Mo Juoning “Sin xua qo‘srig‘i” (“新华颂”), Xe Chi Fangning “Bizning ulug‘ bayramimiz” (“我们最伟大的节日”), Vong Pingning “Vatan haqida kuylash” (“歌唱祖国”) kabi she’rlar va inqilobiy kurash tarixi haqida yozilgan dramatik asarlar Xu Kening “Jangda ulg‘aygan” (“战斗里成长”), Chen Chi Tongning “Ming daryolar va tepaliklar” (“万水千山”), Jing Shanning “Qizil bo‘ron” (“红色风暴”), Lao Shening “Lun Suy daryosi” (“沦须河”), Sya Yanning “Sinash” (“考验”) kabi pyesalari yaratildi<sup>2</sup>. 1976–1989-yillarda yaratilgan adabiy-badiiy asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida shuni aytish mumkinki, boshqa sohalar kabi xitoy adabiyoti vakillari ham “to‘rtlar bandasi”ning Xitoya olib borgan siyosati qurbanlariga aylangan edi, ular qayta tarbiyalash lagerlaridan ozod qilindi. Shu tariqa adabiyotda inqilobiy realizm an’analari yana qaytadan tiklandi, rivojlandi va mazmun jihatdan boyidi. Siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi yangi o‘zgarishlarni adabiyot orqali tasvirlab berish imkoniyati paydo bo‘ldi. Asarlardagi g‘oya borgan sari chuqurlashdi, turli xil qahramonlarning obrazlari va ularning turli xil murakkab xarakterlari haqqoniy tasvirlanadigan bo‘ldi. Bunday sharoitning yangilanib borishi ko‘pgina yozuvchilarning yangi san’at usullari va shakllarida izlanishlar olib borishlariga turtki bo‘ldi. Mana shuning uchun ham bu davrdagi adabiy asarlar sifat jihatidan yuqoriga ko‘tarildi. Ko‘pgina asarlar odamlarning g‘oyasigagina emas, balki jamiyat hayotining rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatib, ijtimoiy jihatdan ko‘zga tashlangan muvaffaqiyatlarga erishdi.

<sup>1</sup> 中国当代戏剧史稿-1949-2000, 董健,胡星亮.中国戏剧出版社,2008 р.

<sup>2</sup> 中国现代文学史 1917—2010(精编版)/朱栋霖主编.—北京:北京大学出,2011

Xitoy adabiyotshunoslida ham bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilgan, jumladan, dramaturgiya rivojiga bag‘ishlangan tadqiqotlardan quyidagi ilmiy asarlarni ajratib ko‘rsatish mumkin Chen Jidening “Xitoy zamonaviy dramasidagi madaniy ziddiyat (1978–2000)” (“中国当代戏剧文化冲突(1978–2000)/2009”)<sup>3</sup>, U Syuminning “Zamonaviy Xitoy adabiyoti tarixi (qisqacha o‘qish kitobi)<sup>4</sup>, 2010” (“中国当代文学史写真(简明读本)/吴秀明主编”. 2010)<sup>5</sup> , “Xitoy drama mumtoz asarlari qadriyati”. 2010. – (“中国戏剧经典作品赏析/郭涤主编,”–2010)<sup>6</sup> , Li Shiu Shengning “Xitoy adabiyoti tarixi, Ming va Ching adabiyoti. 2016” (“中国文学史纲,明清文学/ 2016.”)<sup>7</sup> , Chju Donglinning “Zamonaviy Xitoy adabiyoti tarixi 1917–2010 / 2011”–(“中国现代文学史 1917–2010/朱栋霖主编. 2011.”)<sup>8</sup> , Dong Jian va Xu Xinglianglarning “Xitoy zamonaviy dramasi tarixi loyihasi 1949, 2000 yillar, 2008” (“中国当代戏剧史稿1949–2000, 董健,胡星亮2008”). Ji Binning “Zamonaviy xitoy dramasi” (季玢-《中国现代戏剧》2008) nomli ilmiy asarlarida dramatik asarlarning tavsifi, mavzular ko‘lami, sujet va kompozitsiyasi bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlarining tahlili hamda uni o‘rab turgan ijtimoiy-madaniy muhit va boshqa bir qator tarixiy-adabiy tadqiqot uchun muhim masalalar yoritib berilgan.

Dramaturg Tan Peyshin “Drama haqida” nomli kitobida “Drama (inglizcha: drama) bu ma’lum bir voqeani yoki vaziyatni dialog, qo‘sish yoki harakat shaklida ijob etuvchi san’ati” . (戏剧 (英语 : drama) 是演员将某个故事或情境 · 以对话、歌唱或动作等方式所表演出来的艺术。) <sup>9</sup> deb drama haqida fikrlarini keltirib o‘tadi.

Yozuvchi, teatr arbobi Yuy Chiu Yuy (余秋雨) – “Jahon dramasi” (“世界戏剧学 ”) nomli kitobida “Drama (inglizcha: drama, o‘yin) shaklini anglatadi, dramada dialog ustunlik qiladi. Dramada oz miqdordagi musiqa va qo‘sishdan foydalanish mumkin bo‘lsa-da, bayon qilishning asosiy usuli bu dialog yoki sahnadagi aktyorlarning monologi” dramaga izoh beradi. (话剧 ( 英语 : straight

play) 指以对话为主的戏剧形式。话剧虽然可以使用少量音乐、歌唱等 · 但主要叙述手段为演员在台上无伴奏的对白或独白.)<sup>10</sup>

XX asrning oxirgi choragi xitoy dramaturgiyasining rivojlanish tamoyillari, janr xususiyatlarini aniqlash orqali, dramaturglar yangi uslubdagi dramaturgiya asoschilari ijodi, dramatik asarlari tahlili asosida bu davr dramaturgiyasining miqdor jihatidan o‘sishi va jahon dramaturgiysi ilg‘or yutuqlarini imkon qadar ijodiy o‘zlashtirishiga yo‘l ochgani, uning taraqqiyoti va asosiy mavzu yo‘nalishlarini belgilab bergen ijtimoiy-ma’rifiy, adabiy-estetik omillar aniqlangan.

<sup>3</sup> 中国当代戏剧冲突(1978—2000)/陈吉德著,一南京”:南京师范大学出版社,2009.

<sup>4</sup> 中国当代文学史写真(简明读本)/吴秀明主编”.北京:北京大学出版11,2010,

<sup>5</sup> 中国戏剧经典作品赏析/郭涤主编,”—北京:高等教育出版社,2010 重印

<sup>6</sup> 中国戏剧经典作品赏析/郭涤主编,”—北京:高等教育出版社,2010 重印

<sup>7</sup> 中国文学史纲,明清文学/李修生编著,-4 版,北京:北京大学出版 2.2016.

<sup>8</sup> 中国现代文学史 1917—2010(精编版)/朱栋霖主编.北京:北京大学,2011.

<sup>9</sup> 谭霈生：“论戏剧性” (北京 : 北京大学出版社, 2009)

<sup>10</sup> 余秋雨：“世界戏剧学” (武汉 : 长江文艺出版社 · 2013

Yangi adabiyot uchun kurash mashaqqatli kechdi. Yangi adabiyotning asosiy jihatni xalq muammosini tasvirlashda, ijtimoiy hayotning salbiy tomonlarini roman, qissa, pyesa va she'riy asarlarda fosh etishda namoyon bo'ldi.

1907-yilning bahorida Yaponiyada tahsil olayotgan xitoylik talabalar tomonidan tashkil etilgan “Bahorgi tol uyushmasida” (“春柳社”) mashhur fransuz dramasi “Traviata” (《茶花女》) va “Qora qul osmonga chorlaydi” (黑奴吁天录) dramasi namoyish etildi. Shundan so'ng Shanxayda “Chunyang uyushmasi” (“春阳社”) tashkil etildi va “Qora qul osmonga chorlaydi” dramasi yana bir bor sahnada namoyish etiladi, bu esa xitoy dramaturgiyasining niholiga aylandi. 1911-yil inqilobidan so'ng, “Bahorgi tol uyushma” a'zolari Ouyang Yuychian (欧阳予倩) va Lu Jing (陆镜) birin-ketin Xitoya qaytib kelib Shanxayda “Yangi drama izdoshlari uyushmasi” (“新剧同志会”) ni tashkil etishdi, ular uyushma orqali an'aniviy mumtoz xitoy dramdan farq qiluvchi yangi dramalarni (ya'ni, zamonaviylashgan) jadallik bilan namoyish etishdi. Shundan so'ng inqilob va taraqqiyotni targ'ib qiluvchi yangi dramalar asta-sekin ommalasha boshladи.

Shu davrda dramaturgiyaning rivojida Ouyan Yuysyan ijodining hissasi katta bo'lgan. Ouyan Yuysyan shu davrda yirik pyesalar yaratdi, jumladan, “Pan Szinlyan”, “Xijron”, “Negrlarning tavbasi”, “Men harakat qilgandan boshlab” va bu asarlar sahnalashtirildi.

Xitoylik olimlar va tadqiqotchilar tomonidan zamonaviy xitoy dramaturgiyasining rivojlanishi ikki davrga bo'lganlar, ya'ni “demokratik inqilob” (“民主革命”) davri va “sotsialistik inqilob va qurilish” (“社会主义革命与建设”) davri. Bu ikki davrda o'zaro bog'liqlik kuzatilsa-da, ammo ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega.

XX asrning oxirgi choragi xitoy dramaturgiyasida janrning yangi talqinini aniqlash, dramaturlarning ijodida ijtimoiy qarashlar tanqidi pyesalar tahlili misolida asoslandi.

XX asrning 80-yillari xitoy dramaturgiyasi rivojida tubdan o'zgarishlar sodir bo'lgan bir davr sifatida e'tirof etiladi<sup>11</sup>. Bu davr dramaturgiyasini uch bosqichga ajratish mumkin: birinchi bosqich 1977–1979-yillarga to'g'ri kelib, dramaturgiyaning qayta “uyg'onishi”, realistik drama an'analarining qayta tiklanishi va bu borada muhim yutuqlarning qo'lga kiritilishi bilan xarakterlanadi; ikkinchi bosqich 1980–1985-yillar oralig'iga to'g'ri kelib, bu davrda milliy pyesalarning yaratilishi nisbatan kamayib, teatr arboblari G'arb modernizmi ruhida yozilgan pyesalarni o'zlashtira boshladilar, jiddiy tadqiqotlar, islohotlar o'tkazildi. Natijada drama janrining nazariy asoslarini o'zida mujassam etgan tadqiqiy asarlar vujudga keldi; uchinchi bosqich 1986–1989-yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu davr o'zidan oldingi bosqichlarda tadqiqiy drama sohasida olingan tajribalarga tayangan holda bu janrning nazariy poydevorini yanada mustahkamlashga qaratilgan asarlarning dunyoga kelishi bilan xarakterlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, 1977-yil dramaturgiyaning qayta “uyg'onishi”, dramada realistik an'analarining kuchayganligi bilan xarakterlanadi. Bu davrda klassik pyesalarning bir qismi qayta sahnaga qo'yila boshlandi, shu bilan birga, o'tkir satira va siyosiy komediya tipidagi dramalar sahnalashtirildi. Ularning aksariyatida Xitoy Kommunistik Partiyasining so'l siyosiy fraksiysi a'zolari Szyan Sin (Mao Szedunning so'nggi rafiqasi), Chjan Chunsyao, Yao Venyuan, Van Xunvendan iborat “to'rtlik guruhi”ning fitnalariga qarshi tanqidiy qarashlar aks etgan edi. Fikrimiz isboti sifatida “Zarang bargi qizarganda” (1977) siyosiy komediyasida “to'rtlik guruhi”ning asl qiyofasining fosh etilishini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, “Tong shafaqi” (1977) dramasida esa 30-yillardagi voqealar qalamga olingan bo'lib, asar muallifi Ping Da-szyan kabi Qizil armiyaning ko'zga ko'ringan askarlarining qo'lga olinishi va o'ldirilishi voqealari orqali, tarixiy faktlar asosida “so'l” kuchlarning Partiyalarning barcha rahbarlari inqilobiy harakatlariiga yetkazgan zararlarni fosh qilishga harakat qildi. Bu ikki asarning chop etilishi shu ruhdagi ko'plab dramatik asarlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Bu asarlarning

<sup>11</sup> 中国现代文学史《高等教育出版社》

umumiyligi shunda ediki, mazkur pyesalarda “4-may harakati” davridagi an’analar qayta tiklanib, yanada rivojlantirildi. 1978-yilda “Sukunat” (Zong Fu-sien) pyesasi Shanxay sahnalarida qo‘yildi, bu pyesa “4-may harakati” qahramonlarining oqlanishi yo‘lida ilk xitob bo‘lib hisoblandi. Pekinda mashhur bo‘lgan “Vijdoniy tizim” (Su Shu-yang) pyesasi “to‘rtlik guruhi”ning Chjou En-layga nisbatan ayblovlar qo‘yishi kabi siyosiy kurashlarni o‘zida ifoda etgan. Bu pyesada Chjou En-lay “03” nomli yangi dori ishlab chiqarish jarayonidagi qaramaqarshiliklarni yorqin obrazlar xatti-harakatlari orqali drama san’atida realizm an’analarining tiklanganini namoyish etdi<sup>12</sup>. Asardagi bosh qahramonlardan biri Fang Ling-syuan orqali taslim bo‘lishni afzal biladigan, axloqsiz odamlarni o‘z dushmanidek yomon ko‘radigan, ochiqko‘ngil va soddadil inson qiyofasida gavdalansa, yana bir qahramon Ding Ven-chjunda nuroni, sochlariga oq oralagan, tabiatan qaysar, gaplari o‘tkir, dunyoqarashi keng, vijdonli, ammo betgachopar inson timsoli mujassamlantirilgan. Bu obrazlar orqali asar muallifi keksa avlod ziyyolilarining o‘ziga xos fe’l-atvori, axloqini ko‘rsatib berishni maqsad qilganligi anglashiladi. Chjuang Szi-sheng esa salbiy qahramon bo‘lsa-da, o‘sha davr sahnalarida an’ana tusiga kirgan “chizilgan arvoh” uslubidagi qahramon bo‘lib, inson fe’l-atvorining murakkabligini ochib beradi. Ikki xil drama – Janub va Shimol dramalarining bir-biriga moslashuvi “Zarang bargi qizarganda” pyesasi sahnaga qo‘yilgandan keyin ikkinchi kuchayish bo‘ldi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘sha yillarda yaratilgan pyesalarning aksariyati “to‘rtlik guruhi”ning kirdikorlarini fosh qiluvchi tanqidiy ruhda yozilganligi kuzatiladi.

Xitoy Xalq Respublikasining yalpi majlisidan so‘ng adabiy jarayonlarda bir qadar o‘zgarishlar kuzatiladi. Yozuvchilar ma’lum bir sinfiy guruh yoki siyosiy mafkuraga xizmat qiluvchi asarlar yaratish tendensiyasidan voz kechib, asarlarning badiiyati, texnikasi ustida ko‘proq ishslash yo‘lini tutdilar. Natijada juda qisqa muddat ichida badiiy jihatdan pishiq dramatik asarlar birin-ketin dunyo yuzini ko‘rdi. Shunday asarlardan biri dramaturg Shao Yesinning “Agar haqiqiy bo‘lganimda” pyesasi bo‘lib, ushbu asar butun mamlakatda qizg‘in bahsmunozaralarga sabab bo‘ldi. Mazkur asar kadrlar tizimida mavjud nuqsonlarga qarshi qaratilgan edi.

XX asr 80-yillarining boshida dramaning ommalashuvi bir qadar pasaydi. Buning sababini, bir tomonidan, mavjud ijtimoiy-siyosiy muhitdagi o‘zgarishlar, shuningdek, iqtisodiy hayotning kundan kunga asosiy e’tibor nuqtasiga aylanib borganligi, Xitoy va boshqa davlatlar o‘rtasida iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalarning keng ko‘lamda rivojlanishi, bo‘sh vaqt o‘tkazishning turli-tuman usullarining paydo bo‘lishi, ikkinchi tomonidan, dramalar namoyishini tashkil qilish bilan bog‘liq moddiy jihatlar bilan izohlash mumkin. Dramaturglar oldida bu vaziyatdan chiqib ketish, raqobatbardosh bo‘lish, teatrni qayta tiklashdek muhim vazifalar ko‘ndalang turardi.

Xalqni “teatrga qaytarish” muammosining yechimi sifatida dastlabki qadamlar qo‘yildi: Meterlink, Xoptman, Jon Singlton, Strindberg, Georg Kayzer, Toledo, O. Nil kabi yirik adiblar, shuningdek, futuristik yo‘nalishda ijod qilgan Mario Bertini kabi dramaturglarning durdona asarları qayta sahnalashtirildi (bu adiblar ijodiga ilk bor “4-may” harakatidan keyin murojaat qilingan edi); XX asrning 50–60-yillarida Fransiyada rivojlangan, qachonlardir Yevropa va Amerikani egallagan Bekket, Besesku, Adamov, Albi kabilarning fantastik dramalari sahanalashtirildi.

1980-yilda Xitoy Yoshlar Teatri Bertold Brextning “Galileya” dramasini namoyish etdi. Rejissyorlar ikki buyuk dramaturg Brext va Stanislavskiy larning dramatik uslublarini birlashtirishga harakat qildilar. 1981-yilda Shanxay Yoshlar Teatr truppassi tomonidan Shanxayda Sartrning mashhur “Bulg‘angan qo‘llar” pyesasi, 1983-yil may oyida Pekin milliy badiiy teatrida rejissyor Artur Miller shaxsan o‘zi sahnalashtirgan “Gumashtaning o‘limi” nomli pyesa namoyish etildi.

<sup>12</sup> 中国现代文学经典选读/北京/2006年

Dramaturglar Brextning hikoya uslubidagi dramalari, fantastik dramalar, Grotovskiyning “haqqoniy pyesalar”i, Altoning “shafqatsiz pyesalar” i, Meterlinkning “jonsiz pyesalar”i va to‘qima p̄yesalari uslubini chanqoqlik bilan o‘zlashtirdilar

80-yillarning boshlarida eksperimental yoki avangard drama uchun butun bir harakatning paydo bo‘lishiga qisman G‘arbning ta’siri bo‘lgan edi, lekin shunisi qiziqliki, bu davrda Xitoy teatrlarida doimo muvaffaqiyatga erishgan G‘arb dramaturglarining pyesalari kam edi.

Jamiyat va insoniyat hayotida yuz berayotgan globallashuv hodisasi barcha sohalarda yangiliklarning paydo bo‘lishi va munosib o‘rin egallashiga imkon yaratmoqda. Bunday ijobjiy yangilanishdan o‘zbek adabiyotshunosligi va so‘z san’ati ham chetda qolayotgani yo‘q. Ochig‘i, jahon adabiyoti bilan bevosita hamkorlik va yaqinlashish paydo bo‘layotganligi sababli adabiyotshunosligimiz ham G‘arb adabiyoti nazariyasi hamda amaliyotida uzoq yillardan buyon qo‘llanilib kelayotgan, asosan, o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab g‘oyat faollashgan modernizm, postmodernizm, absurd, ekzistensializm, syurrealizm kabi atamalar bilan boyidi .

XX asr adabiy jarayonini yangilashda ko‘proq hissa qo‘sghan, unga yangicha ruh bag‘ishlagan modern yozuvchilar to‘g‘risida so‘z yuritmoqchimiz. Vaholanki, badiiy adabiyotga haqiqiy yangilik olib kiruvchilar uchun nima so‘zlashdan ko‘ra, qanday qilib so‘zlash ancha muhimroqdir.

Ilk bor G‘arb absurd teatri antologiyasi 1980-yilda Shanxayda yaratildi. U o‘z ichiga Samuel Bekket, Edvard Albi, Garold Pinter, Ernest Tollerning pyesalari ham qamrab olgan edi. Ma‘lumotlarga ko‘ra aynan ushbu adiblarning dramatik asarlari Xitoyga G‘arb avangard teatrining kirib kelishiga omil bo‘lgan. Albatta, bu jarayonlar xitoy teatrlarida sahnaviy ko‘rinish kasb etishi kerak edi. Bu qadam ilk bor aynan Gao Sin Jyan tomonidan qo‘yildi. 1982-yil oxirlariga kelib Pekin xalq teatrida adibning “Ogohlantirish xabari”pyesasi namoyish etildi. Bu pyesa nafaqat teatr jamiyatida, balki omma orasida ham katta muvaffaqiyatga erishdi. Aynan ushbu pyesaning sahnaga olib chiqilishi Xitoyda avangard teatrining vujudga kelishiga turki bo‘ldi. Gao Sin-jyan adabiyot sohasida “Xitoy nasri va dramaturgiyasida yangi yo‘nalishlar ochuvchi” va “olamshumul ahamiyatga ega bo‘lgan hozirgi kun odamlarining alamlari ifodalangan asarlari” uchun Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan ilk Xitoy yozuvchisidir.

G‘arb modernizmi va realistik dramaturgiyaning Xitoy milliy an'anaviy dramaturgiysi (musiqali drama – sijuy)ning uyg‘unlashuvi o‘ziga xos yangi Xitoy dramasining vujudga kelishiga turki bo‘ldi.

Ushbu dramalar tanqidchilar tomonidan birdek qabul qilinmadni. G‘arb modernistik yo‘nalishi ta’siri ostida vujudga kelgan yangi dramaturgiya oid qarashlar eski qarashlarga nisbatan, ya’ni uzoq vaqtadan beri mavjud bo‘lib kelayotgan Xenrik Ibsenning “ijtimoiy muammolar pyesasi” uslubi va Stanislavskiy tizimi ta’siri ostida vujudga kelgan hayotiy illuziyalarini yaratuvchi “to‘rt devor” uslubidagi pyesalar kurashining oqibati edi. Bahs-munozaralar natijasida realistik dramaga qarshi o‘laroq, 60-yillarda Huang Szo-lin tomonidan ilgari surilgan “impressionistik drama” g‘oyasi qayta tiklandi. Gao Sin-jyanning fikricha, “Ibsenning ijtimoiy axloqqa oid pyesalari g‘oyaviy-mafkuraviy pyesalardir, ularning yozilganiga bir asr bo‘lgan, bu pyesalar yozilganidan buyon dunyo dramaturgiyasini rivojlanshishdan to‘xtagani yo‘q, xuddi shunday biz ham Tongchji, Guansyuy davridagi bir chet et dramaturgining pyesalarini olib, ularni kuchli qonunga aylantirib, o‘z oyoq-qo‘limizni kishanlab olishimiz shart emas”.

G‘arb modernistik dramasi xususiyatlari o‘zlashtirish, realistik drama an'analarini buzish, teatr sohasidagi islohotlar xususidagi qizg‘in bahs-munozaralar ijod olamida va teatr sohasida o‘ziga xos qaynoq ijodiy muhitni va turli nazariyalar, qarashlarning shakllanishiga sabab bo‘ldi. Fikrimiz isboti sifatida, Huang Szo-lin tomonidan ilgari surilgan “dramada impressionistik qarashlar”, “impressionizm” va “realizm”, “fantastik dramalar” va “fantastik bo‘lmagan dramalar” nazariyalarining ishlab chiqilishi, qator ommaviy axborot vositalari (“Drama”, “Ssenariy”, “Teatrshunoslik”, “Dramaturgiya dunyosi”) va turli nashrlarda chop etilgan maqolalarda dramaturgiyaning xususiyatlari, tabiat, yozilish qoidalari, teatr va tomoshabin,

dramaturgiya haqida g‘oyalar, dramaturgiyaning mavjud bo‘lish usullari kabi mavzular bo‘yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar e’lon qilinganini e’tirof etish mumkin.

XX asr ikkinchi yarmi adabiyotining rivojlanish tendensiyasini davrlarga bo‘lgan holda ko‘rib chiqildi. Birinchi davr Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilgach, adabiyot olamiga ozod etilgan hududlar va butun Xitoydan, gomindanchilardan iborat ijodkorlar kirib keldi, bu o‘z-o‘zidan, adabiyotda ikki kompozitsion oqimni vujudga keltirdi, birinchi oqim ijodkorlari asarlarida, xalq madaniyatining demokratik janrlari va folklori ta’siriga sezilib tursa-da, ikkichi oqimga G‘arb adabiyoti ta’sirida ijod qilgan adiblar asari kiritish mumkin. Ikkinci boskich XX asrning elliginchi yillari xitoy adabiyotida urush mavzusi dolzarb mavzularga aylangan davr hisoblanadi. Uchinchi davr esa xitoy adabiyotida zamonaviy she’riyat rivoji, rus adabiyoti namunalarni keng targ‘ib qilgan jurnallar o‘z faoliyatini boshlagan davr deya olamiz, shunday bo‘lsada, 1967–1969-yillar turg‘unlikka uchragan davrni ham aytib o‘tish joyizdir. To‘rtinchı davr esa adabiyot biroz jonlangan, avvalgi mashhur adiblar asarlari nashr ettila boshladi, siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohalardagi yangi o‘zgarishlarni adabiyot orqali tasvirlab berish imkoniyati paydo bo‘ldi. 1980-yillardan boshlab, adabiyot olamida ommaviy “Ildizlarga qaytish” harakati boshlandi, bu xitoy adabiyotini o‘z aqidalariga, an’analariqa qaytishini ko‘zlagan harakat bo‘ldi. Chunki, “madaniy inqilobdan” so‘ng, mamlakat adabiy olamini faqat siyosiy asarlar, kommunistik targ‘ibotlarni o‘zida mujassam etgan kitoblar, bundan tashqari, Yevropa adabiyotida keng yoyilgan modernizm va postmodernizm janrlari egallab kelayotgan edi. “Ildizlarga qaytish” harakati xitoy adabiyoti olamini siyosatdan sug‘urib, haqiqiy adabiyot, ijodkorlik sari burdi. Ayniqsa, bu davrda shaxs, uning tuyg‘ulari, ruhiy olami kabi dolzarb mavzular keng muhokama qilina boshlandi.

## XULOSA

Yuqorida bayon qilinganlardan anglashiladiki, Xitoya XX asrning saksoninchi yillari teatr san’atini rivojlantirishga, to‘g‘riroq‘i, jonlantirishga ehtiyoj tug‘ilgan bir davr sifatida xarakterlanadi. Bu davr drama janrining nazariy jihatdan tubdan isloh qilish davri bo‘lganligi bilan ham e’tiborlidir. Bu sohadagi turli bahslar, tortishuvlar o‘tgan asrning to‘qsoninchi yillarigacha davom etdi. Fikrlar, qarashlar plyuralizmi esa drama san’atining o‘ziga xos “qayta uyg‘onishiga”, tamomila yangi qiyofa kasb etishiga sabab bo‘ldi. Postmodern dramaning an’analarga qarshi isyon ko‘tarishi, uni buzib tashlash xususiyati borligida, Yangi avlod xitoy dramaturglarining isyonkor, eksperimental, innovatsion va postmodern dramasi o‘z kuzatuvchilarini jalb qildi. Ana shu noan’anaviy ruh ularni Xitoydagagi shu davr dramaturgiyasining o‘sha paytdagi holatidan norozi bo‘lib, ular an’anaga qarshi bo‘lishni, “o‘zlarining ayniqsa kuchli dramaturgiysi” eksperimentlarini o‘tkazishni xohlayotganliklarini ochiq da’vo qilishiga sabab bo‘ldi. An’anaviy dramalarga qarshi chiqish va yangilarini yaratish xitoylik postmodern dramaturglarning shioriga aylandi.